



UDK: 339.466.54

QASHQADARYO VILOYATIDA AGROSANOAT KLASTERLARINING ISHCHI KUCHIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Samiyeva Gulnoza Toxirovna,
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.
Abdullayev Olimjon G'ayratovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrasi assistenti, erkin tadqiqotchi,
agolider1987@icloud.com

Annotatsiya: Maqolada mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshiruvchi manba sifatida hududning iqtisodiyot tarmoqlarida faol mexanizmning optimallik mezonlariga mos ravishda joriy qilinganligi, klasterlashtirish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu jarayon bir qator omillarni birlashtirib, kompleks rivojlantirishning o'ziga xos iqtisodiy tahlili, ularning ko'rsatkichlarning guruhlangan tizimi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya samaradorligi, xizmatlar tarmog'i, agrosanoatni subklasterlashtirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanish, xarajatlarni minimallashtirish-klasterlar, salohitini baholash, optimallashtirish, klasterlashtirish.

KIRISH

Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshiruvchi manba sifatida hududning iqtisodiyot tarmoqlarida faol mexanizmning optimallik mezonlariga mos ravishda joriy qilinganligidir. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot tarmoqlarida joriy etilgan mexanizmlarning mohiyatan umumlashgan qismi sifatida klasterlashtirish amaliyoti bilan chambarchas bog'langanligidir. Jadval ma'lumotlari bo'yicha ishlab chiqarishda foydalanilgan investitsiya birligiga mos keluvchi ishlab chiqarish hajmi chiziqli, nisbatan tez o'suvchi tendensiyaga ega bo'lib, 2023 yilda 2018 yilga nisbatan 0,113 birlikga oshgan. Marketing faoliyatida foydalanilgan investitsiya birligiga mos keluvchi sotilgan mahsulot hajmi chiziqli, nisbatan sekin o'suvchi tendensiyaga ega bo'lib, 2023 yilda 2018 yilga nisbatan 0,81 birlikga oshgan. Mazkur holatda ishlab chiqarish faoliyatida sarflangan investitsiya samaradorligi nisbatan tezkor sur'atda o'sishi to'g'ridan-to'g'ri umumiy resurs samaradorligiga bog'liq bo'lish ehtimoli yuqori. Bu holatning asoslanishi klasterlashtirish usulining afzallik xususiyatlari ko'lamini kengaytiradi. Marketing faoliyatidagi kuzatish natijalari esa, klasterlar faoliyatida innovatsion rivojlanishga e'tiborni kuchaytirish zarurligini ifoda etmoqda.

Ishlab chiqarish faoliyatida investitsiya samaradorligining umumiy resurs samaradorligiga bog'liq bo'lish ehtimoli darajasini baholashda klasterlarining ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi ko'rib chiqildi (1-jadval).

1-jadval



Qashqadaryo viloyatida agrosanoat klasterlarining ishchi kuchidan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari¹⁶

Ko'rsatkichlar	Yillar						Farq (2023-2018)
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
[1] Mehnat samaradorligi, xodimga nisbatan	58,697	58,891	60,735	60,415	66,033	67,160	+8,463
[2] Mehnat samaradorligi, ish hajmiga nisbatan	1,007	1,003	1,031	0,995	1,093	1,017	+4007,0*
Ko'rsatkichlar	O'sish sur'ati, foizda						O'rtacha qiymatda
[1] Mehnat samaradorligi, xodimga nisbatan	-	100,3305	103,1312	99,47312	109,299	101,7067	102,7
[2] Mehnat samaradorligi, ish hajmiga nisbatan	-	99,60278	102,7916	96,50824	109,8492	93,04666	100,2

Bu yerda: [1] – klasterlarda 1 nafar ishchi-xodimga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi, 2018 bazis yilga nisbatan mln. so'mda, [2] – vaqt birligida bajarilgan real ish hajmining o'zidan oldingi davrga nisbatan o'zgarishi, nisbat indeks, 2018 bazis yil, (*xodimning 1 soatda bajargan ish hajmiga mos miqdorlarning keltirilgan davrlardagi farqi).

Muammoni qo'yilishi

Mamlakatimizda klasterlashtirish amaliyoti, agrosanoatni klaster usuli yordamida rivojlantirish jahon tajribasidan kelib chiqib, mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy potensialini, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tendensiyasini, amalga oshirish mexanizmlarining

¹⁶ Qishloq xo'jaligi vazirligi va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan


xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashilgan keng ko'lamli jarayonlarini bajarishga erishish.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Agrosanoat klasterlarini subklasterlar asosida rivojlantirishda iqtisodiy potensialini baholashdan ilmiy nuqtaiy nazardan faoliyat sifatida, jarayon sifatida, omil sifatida va boshqa xususiyatiga ko'ra ta'riflash mumkin. O'zbekistonlik olimlarning (3) Рахимов, А. Н., Махматкулов, Г. К., и Рахимов, А. М. (2021), Jo'rayev, F. D., Ochilov, M. A., Rakhimov, A. M., & Doliyev, S. Q. (2023)) Agrosanoat klasterlashtirishga bergan ta'riflari keng manbalarda keltirilgan bo'lib, tadqiqotchilar ilmiy ishlarida ulardan foydalanishadi [3. 4. 5].

Xorijiy iqtisodchi olimlari agrosanoatni klasterlashtirishning tashkiliy marketing tamoyillari asosida samaradorlikni oshirish modellarini (Sannikova T. D. i drug. Jurnal Ekonomicheskoye otnosheniya. Tom 9, № 2, 2019. Str-481-494..), zamonaviy rivojlanish talablari asosida ulgurji va chakana savdo korxonalarini tashkil etish va yangi texnologiyalar asosida rivojlantirishning turli modellarini (Smagin B.I. Kineticheskaya, B.I. Smagin // Nauchniye osnovi funkcionirovaniya i upravleniya APK. Nauchniye trudi NAEKOR. Vip.6. Tom 3. – M.: SXA, 2002. – S.258-264) taklif etishgan bo'lsada, bu modellar iqtisodiy-boshqaruv, marketing, tashkiliy xarakterdagi iqtisodiy qonuniyatlarni umumiy holda tushuntirish, ko'rsatkichlarning alohida holatida, bog'liqsiz baholash va tadqiq etish bilan cheklangan. [6. 7]

Tahlil va natijalar muhokamasi. Qashqadaryo viloyatida umuman olganda barcha agrosanoatida klasterlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish algoritmlari 4 bosqichli mexanizmlarga ajralishi hisobga olgan 4 ta algortimga ajratish mumkin. To'rt bosqichli mexanizmlarini esa quyidagicha taqsimlashni maqul deb topildi (1-rasm)



1-rasm. Agrosanoatni klasterlashtirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish algoritmi (dastlabki bosqich)

1-bosqichda tizimli rivojlanuvchi agrosanoat klasterini tashkil etishning bosqichlari sifatida klasterlarni shakllantirish,

2-bosqichda klasterlarning faoliyatini rivojlantirish,

3-bosqichda klasterlarning samaradorligini baholash sifatida ko'rib chiqildi.

Mazkur subalgoritm klasterlarni tashkil qilish jarayoni bilan va uni rivojlantirish qarorlarini qabul qilish jarayonida tugallanadi. Shundan keyin klasterlashtirishning ikkinchi bosqichiga, ya'ni tizimli rivojlanuvchi agrosanoat klasterini moliyalashtirish mexanizmining subalgoritmi bo'yicha jarayon davom etadi. Ushbu subalgoritm ham uchta bosqichlarning ketma-ket bajariluvchi jarayonlaridan tashkil topgan.

Agrosanoatni klasterlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish algoritmlari jarayonning bog'liqlik darajasini belgilab beradi va mazkur mexanizm korxonalar iqtisodiy potensialini oshirishga xizmat qiladi, hamda faoliyatini kengaytirishning asosiy omilidir.

NATIJALAR

Agrosanoat klasteri subklasterlar asosida rivojlanish mexanizmining eng asosiy amaliy natijalaridan biri–bu uning hududlararo faoliyatining yo'lga qo'yilganligidir. Hududlararo faoliyatining keng imkoniyatlari mavjud bo'lib, territorial cheklanishlarni yumshatish, tovar brendini shakllantirishni osonlashtirish, tashqi aloqalarga kirishishni va mahsulot (xizmatlar) bozorini kengaytirish shular jumlasidandir. Bazis klaster ko'p funksiyali bo'lishi uning korxonalar sifatida takomillashuvini anglatadi. Subklasterli tarmoqlanish ko'p funksiyalikni talab etadi.

Vaqt birligida bajarilgan real ish hajmining o'zidan oldingi davrga nisbatan o'zgarishi sekin o'suvchi, biroq kuchli tebranma tendensiyaga ega bo'lib, tebranish nisbatan so'ngi besh yillikning oxiriga to'g'ri keladi. O'rtacha o'sish sur'ati mazkur davrlarda 0,2 foizni tashkil etadi. Agroklasterni mehnat unimdorligi sekin o'smoqda. Biroq, vaqt birligida bajarilgan real ish hajmining o'zidan oldingi davrga nisbatan o'zgarishi nomonoton xossaga ega deyish mumkin. Bu esa jarayonda mehnat resurslari samaradorligini oshirishda muammolar mavjudligini ifoda etadi. Ushbu muammoning natijaviylikga ta'sir darajasi agar agrosanoatning klasterlashtirish natijasida erishilgan asosiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarida nomayon bo'lsa, mohiyat ish haqi harajatlari doirasidan tashqariga chiqib ketishiga ishora qiladi. Shu sabab mintaqada agrosanoatning klasterlashtirish natijasida erishilgan asosiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari dinamikasiga e'tibor qaratildi

MUHOKAMA

Umumiy holda agrosanoat subklasterlari algoritmlash qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni yaratishga hududiy maqomdagi ishlab chiqarish drayverlaridir. Haqiqatan, ular qayta ishlashni rivojlantirish, bozorga kirishni osonlashtirish, innovatsiyalarni joriy qilish, kadrlarni tayyorlash, investitsiyalarni jalb qilish salohiyatiga egadirlar.

XULOSA

Haqiqatan klasterlar a'zolariga resurslarni birlashtirishga imkon beradi, bu esa samaradorlikni oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Mahalliy xom ashyodan foydalanishni rag'batlantiradi, bu esa mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Agrosanoat klasterlarini subklasterlar asosida rivojlantirishda jarayonning nozik xususiyatlarini doimiy nazorat qilish, jumladan, faoliyati kengaytirilgan subyekt mahsulot (xizmatlar) bozorida a'zolarining o'rnini egallash tamoilida emas, balki a'zolar funksiyalarini o'zlashtirish va ijroda ularning manfaatlarini hisobga olgan holda xarakatni tashkil etishi, ya'ni a'zolarning bozorga kirishini bitta kompleks tizim asosida osonlashtirishi zarur. Ushbu tamoil va mezon yiriklashgan klaster korxonasining monopollashuv darajasini cheklaydi va sog'lom raqobat muxitini yaratishdagi xissasini ta'minlaydi.



ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrda “2016-2020 yillar davrida qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2460-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi №458-son- Qishloq xo‘jaligi birlashmalarining a‘zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik subyektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko‘chatlar (pakana va yarim pakana) xo‘raki, kishmishbop va sanoatbop tok ko‘chatlari hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi Qarori.

3. Рахимов, А. Н., Махматкулов, Г. К., и Рахимов, А. М. (2021). Построение эконометрических моделей развития сферы услуг для населения региона и их прогнозирование. Американский журнал прикладных наук, 3 (02), 21–48.

4. Jo‘rayev, F. D., Ochilov, M. A., Rakhimov, A. M., & Doliyev, S. Q. (2023). Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. In E3S Web of Conferences (Vol. 460, p. 04013). EDP Sciences.

5. Ochilov, M. A., Juraev, F. D., Maxmatqulov, G. X., & Rahimov, A. M. (2020). Analysis of important factors in checking the optimality of an indeterminate adjuster in a closed system. Journal of Critical Review, 7(15), 1679-1684.

6. Sannikova T. D. i drug. Zarubejniye modeli sifrovoy transformatsii i perspektivi ix ispolzovaniya v rossiyskoy praktike. Jurnal Ekonomicheskoye otnosheniya. Tom 9, № 2, 2019. Str-481-494.

7. Raximov , A. N. (2024). Sanoat tarmoqlarining milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘milashdagi roli va rivojlantirish siyosati. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 150–156.

8. Raximov , A. N. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 43–48.

9. Жўраев, Ф. Д. Аралов FM (2023). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнини эконометрик моделлаштириш заруриятининг асосий жиҳатлари. Educational research in universal sciences, 2(2), 36-43.